солиқ, кредит ва инвестиция сиёсатлари аниқ ва ҳисоб-китобли бўлади, автоматлаштириш орқали инсон омили камаяди, тезкор қарорлар қабул қилинади, ходимлар натижага қараб баҳоланади ва рағбатлантирилади. Шунингдек, инвесторлар ва акциядорлар учун ишончли, шаффоф ва барқарор молиявий муҳит яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 16-июндаги «Кимё саноатини диверсификация қилиш, тармоқни рақамлаштириш ҳамда молиявий соғломлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори

2. Banner S, "The origin of the New York stock exchange" (Journal of legal studies, 1998, – P,1791-1860).

3. Gulsina Gabdullina, Mukhamat Gilmanov, Aisylu Akhmetgareeva Development of normative values of indicators for assessing the financial condition of enterprises in various industries. Transportation Research Procedia 63 (2022) 1139–1146

4. Ichak K. Adizes — Corporate Lifecycles Adizes Institute Publications 1990

5. С.Э. Элмирзаев "Корпоратив бошқарув". (Т.: "Zebo-Press", 2021).

O‘ZBEKISTONDA BUDJET MA’LUMOTLARINI E’LON QILISH AMALIYOTI[329]

Alijonov Ahadjon Hasanboy o‘g‘li
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq va
bojxona ma’murchiligini takomillashtirish,
fiskal tahlillar instituti, bosh mutaxassis

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekistonda budjet ma’lumotlarini e’lon qilishning huquqiy asoslari va amaldagi mexanizmlari tahlil qilingan. Davlat budjeti to‘g‘risidagi axborotlarni jamoatchilikka yetkazishning asosiy shakllari, jumladan, rasmiy veb-saytlar, «Ochiq budjet» axborot portali hamda «Fuqarolar uchun budjet» nashrlarining o‘rni yoritilgan. Budjet ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlashda ularning to‘liqligi, o‘z vaqtida e’lon qilinishi, tushunarliligi va qayta ishlash imkoniyatining ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: budjet ochiqligi, budjet ma’lumotlari, davlat budjeti, ochiq ma’lumotlar, budjet hisobdorligi, jamoatchilik nazorati.

Davlat moliyasini boshqarishda budjet ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlash davlat organlarining hisobdorligini oshirish, budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan

[329] Ushbu ish O‘zR Innovatsion rivojlanish agentligining AL-10725078013-sonli “Xalqaro Budjet Hamkorligi tashkilotining (International Budget Partnership) talablari asosida O‘zbekistonda budjet ochiqligini ta’minlashning “milliy modelini” yaratish” mavzusidagi amaliy lohiha doirasida bajarildi.

jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda davlat moliyasiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Budjet ma’lumotlarining ochiqligi davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishga doir axborotlarning keng jamoatchilik uchun mavjudligi bilan birga, ularni tushunish, tahlil qilish va baholash imkoniyatini ham nazarda tutadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda budjet jarayonining ochiqligini oshirishga qaratilgan huquqiy va institutsional mexanizmlar shakllantirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 17-moddasida ochiqlik prinsipi mustahkamlangan bo‘lib, u Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlariga oid axborotlarni, shuningdek, ularning ijrosi yuzasidan hisobotlarni ommaviy axborot vositalarida va Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilishni nazarda tutadi [1].

Mazkur yo‘nalishdagi muhim huquqiy hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi PQ-3917-son «Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroridir. Ushbu qaror asosida budjet ma’lumotlarini jamoatchilikka taqdim etish mexanizmlari kengaytirilib, «Ochiq budjet» axborot portalini tashkil etish, Davlat budjeti loyihasi va ijrosi yuzasidan axborotlarni e’lon qilish hamda «Fuqarolar uchun budjet» nashrini tayyorlash vazifalari belgilangan [2].

Budjet ma’lumotlarini e’lon qilish tartibini yanada aniqlashtirish maqsadida 2021-yil 7-mayda 3299-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan «Budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirish tartibi to‘g‘risida»gi nizom qabul qilingan. Mazkur nizomda budjet mablag‘larining taqsimoti, xarajatlar smetasi ijrosi, davriy moliyaviy hisobotlar, davlat xaridlari, kapital qo‘yilmalar va boshqa moliyaviy ma’lumotlarni e’lon qilish tartibi, shakllari hamda muddatlari belgilangan. Shuningdek, ma’lumotlarni ochiq, bepul va mashinada o‘qiladigan shakllarda taqdim etish talabi mustahkamlangan [3].

Amaldagi tajriba O‘zbekistonda budjet ma’lumotlarini e’lon qilishning bir nechta shakli mavjudligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida Davlat budjeti loyihasi, Budjetnoma, tasdiqlangan budjet parametrlari, budjet ijrosi yuzasidan choraklik va yillik hisobotlar, davlat moliyasi statistikasi va boshqa tegishli ma’lumotlar joylashtirilmoqda.

Xususan, 2025-yil 25-noyabrda 2026-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi, Budjetnoma hamda «Fuqarolar uchun budjet» axborot nashri jamoatchilikka taqdim etilgan. Ushbu hujjatlarda davlat daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari, budjet taqchilligi, davlat qarzi va o‘rta muddatli budjet mo‘ljallariga oid ma’lumotlar yoritilgan [4].

Shuningdek, vazirlikning rasmiy veb-saytida 2025-yil yakunlari bo‘yicha Davlat budjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobot 2026-yil 30-iyunda, 2026-yil birinchi yarim yillik ijrosi to‘g‘risidagi hisobot esa 17-sentabrda e’lon qilingan [5; 6]. Bu budjet ijrosiga oid

hisobotlarni davriy ravishda jamoatchilikka taqdim etish amaliyoti mavjudligini ko‘rsatadi.

Budjet ma’lumotlarini aholiga tushunarli shaklda yetkazishda «Fuqarolar uchun budjet» nashri alohida ahamiyatga ega. Ushbu nashr orqali murakkab moliyaviy ko‘rsatkichlar sodda izohlar, jadval va grafiklar yordamida taqdim etiladi. Bu esa fuqarolarning davlat daromadlari manbalari, budjet xarajatlarining asosiy yo‘nalishlari va davlat moliyasiga oid qarorlar haqida tasavvurga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, budjet ma’lumotlarini e’lon qilish amaliyotini faqat axborotlarning rasmiy veb-saytlarga joylashtirilishi nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas. Ularning tahlil uchun qulayligi, turli hisobot davrlari bo‘yicha qiyoslanishi, izchilligi va foydalanuvchilar uchun tushunarliligi ham muhim hisoblanadi.

Masalan, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yilgi budjet ijrosi hisobotlari PDF shaklida taqdim etilgan bo‘lsa, ayrim budjet statistikasi elektron jadvallar ko‘rinishida ham e’lon qilinmoqda. Bunday yondashuv axborotlarning mavjudligini ta’minlasa-da, ularni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash va vaqt bo‘yicha taqqoslash qulayligi foydalanilgan ma’lumot shakliga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, ko‘rsatkichlarni hisobot hujjatlaridan alohida ajratib olish talab qilinadigan hollarda foydalanuvchining tahlilga sarflaydigan vaqti ortishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, budjet ma’lumotlarining ochiqligi bilan ulardan amalda foydalanish imkoniyati o‘rtasida farq mavjud. Xalqaro budjet hamkorligi tashkilotining 2025-yildagi «Ochiq budjet tadqiqoti»da ham budjet shaffofligini baholashda ma’lumotlarning o‘z vaqtida e’lon qilinishi, qamrovi va foydalanish imkoniyati bilan birga jamoatchilik ishtiroki hamda nazorat mexanizmlariga e’tibor qaratilgan [7].

Budjet ma’lumotlarini e’lon qilishda qayta ishlash uchun qulay elektron shakllardan foydalanishni kengaytirish lozim. Budjet hisobotlarini PDF ko‘rinishida chop etish bilan bir qatorda, asosiy statistik jadvallarni XLSX, CSV yoki boshqa tuzilmali ma’lumot shakllarida taqdim etish mustaqil iqtisodiy tahlillarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Budjet ochiqligini oshirishning yana bir muhim yo‘nalishi e’lon qilinadigan ma’lumotlarning mazmunini kengaytirish va ularning tahliliy qiymatini kuchaytirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda budjet ma’lumotlarini e’lon qilishning huquqiy asoslari va axborot taqdim etish mexanizmlari shakllangan. Davlat budjeti loyihalari, tasdiqlangan budjet ko‘rsatkichlari, ijro hisobotlari va fuqarolar uchun mo‘ljallangan nashrlarning e’lon qilinishi davlat moliyasi ochiqligini ta’minlash yo‘lidagi muhim amaliyot hisoblanadi. Kelgusida ushbu tizimni rivojlantirishda asosiy e’tiborni e’lon qilinadigan axborotlar hajmini oshirish bilangina cheklamasdan, ularning sifati, qayta ishlash imkoniyati va budjet xarajatlari natijalari bilan uyg‘unligini ta’minlashga qaratish maqsadga muvofiq. Bu budjet ma’lumotlarining ochiqligini oshirish bilan bir qatorda, davlat moliyasining hisobdorligi va budjet

mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholash imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr, 17-modda. https://lex.uz/uz/acts/-2304138

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi PQ-3917-son «Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. https://lex.uz/docs/-3879197

3. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 27-apreldagi 26-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirish tartibi to‘g‘risida»gi nizom. Ro‘yxat raqami 3299, 2021-yil 7-may. https://lex.uz/docs/-5413105

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2025). «2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi Qonun loyihasi va Budjetnomaga sharh. https://gov.uz/oz/imv/news/view/105279

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2026). Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2026-yil birinchi yarim yillik ijrosi hisoboti. https://gov.uz/oz/imv/sections/view/195832

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2026). Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2025-yil ijrosi hisoboti. https://gov.uz/oz/imv/sections/view/195834

7. International Budget Partnership (2026). Open Budget Survey 2025: Twenty Years of Open Budgets — Transparency Has Advanced, But Accountability Has Not Kept Pace. https://internationalbudget.org/open-budget-survey/2025-global

HUDUDLAR INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Nizamov Xusniddin Fazlidinovich
Mustaqil tadqiqotchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Investitsiyalar hududlar iqtisodiyotining o‘sish sur’atini belgilaydigan asosiy omillardan biri sanaladi. Chunki ular yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish hududlarga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va ularni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mamlakatda investitsion faollikning ortib borayotganida o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, O‘zbekistonda 2025-yilda barcha manbalar hisobidan asosiy kapitalga 591,1 trln so‘m investitsiya o‘zlashtirildi [2]. Ammo bu